

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIYDARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV FERUZ YULDASHEVICH

**SUG‘ORISH NASOS STANSIYALARI KASKADLARINING
ISHONCHLILIGI VA XAVFSIZLIGINI OSHIRISH
(Qarshi magistral kanali misolida)**

05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Tursunov Feruz Yuldashevich

Sug‘orish nasos stansiyalari kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish (Qarshi magistral kanali misolida)..... 5

Турсунов Феруз Юлдашевич

Совершенствование надежности и безопасности каскадов ирригационных насосных станций (на примере Каршинского магистрального канала)..... 23

Tursunov Feruz Yuldashevich

Improving the reliability and safety of cascades of irrigation pumping stations (using the example of the Karshi main canal)..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
Listof published works..... 46

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIYDARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV FERUZ YULDASHEVICH

**SUG‘ORISH NASOS STANSIYALARI KASKADLARINING
ISHONCHLILIGI VA XAVFSIZLIGINI OSHIRISH
(Qarshi magistral kanali misolida)**

05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/T4525 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyumi)) ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.kstu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xujaqulov Rustam texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Glovatskiy Oleg Yakovlevich texnika fanlari doktori, professor Rashidov Jaloliddin Ibodullayevich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD-04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28 - 10 kuni soat 15:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy). Tel.: (998-75)221-09-23, e-mail: admin@kstu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy). Tel.: (998-75)221-09-23 Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 16 - 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil 16 - 10 da) 3/R raqamli resurs baxoromomasi).



S.S.Eshev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.A.Latipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent

A.A.Yangiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda irrigatsiya tizimlari nasos stantsiyalari kaskadlari ishonchliligi va xavfsizligini oshirish uchun yangi zamonaviy texnika vositalari va tejamkor texnologiyalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida “...rivojlangan mamlakatlarda nasos stantsiyalari ishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etish, energiya va resurslar tejamkorligiga erishish, suv yetkazib berish texnologik jarayonini boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi”¹ Keyingi yillarda iqlim o‘zgarishi sababli ayniqsa, transchegaraviy daryolarda suv sarfi va suv sathi kamayib ketayotganligi sug‘orish nasos stantsiyalari kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan sug‘orish nasos stantsiyalari kaskadlarini ekspluatatsiya holatining samaradorligi hamda ishonchliligini oshirish, kaskadli mashina kanallarida loyihalash, qurilish jarayoni va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ishonchlilik nazariyasi iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq holda tizim va qurilmalarning ishonchliligi muammolarini hal qilish, ko‘plab elementlardan iborat o‘rganilayotgan ularning ishonchliligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ishonchliligini baholamasdan turib turli qurilmalarni loyihalash, ish sharoitlarini aniqlashtirish, xizmat muddatini oldindan baholash va xavfsizlik kafolati darajasini aniqlashning afzalliklarini hisobga olishga imkon bermaydi Nasos stantsiyalarining gidrotexnika inshootlarini ishlatish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, daryodan to‘g‘onsiz suv olish, turli suv tashlash inshootlari, kanallarni suv dimlash inshootlari bilan kesishmalari butun majmuaning ishlash qobiliyatiga katta ta’sir o‘tkazadi. Shunga ko‘ra, kaskadning ishonchliligi birinchi navbatda kanal bosh qismidagi suv o‘tkazish inshootlariga bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan muhandislik inshooti bo‘lgan sug‘orish nasos stantsiyalari kaskadlarini ishonchliligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi paytda sug‘orish tizimlari nasos stantsiyalari kaskadining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish borasida ularni chidamliligini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish, ishdan chiqishdan bo‘ladigan iqtisodiy zararlarni minimal darajaga tushirish bo‘yicha keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilib, zamonaviy innovatsion rivojlanishning talablariga mos keladigan ishlanmalarni yaratishyuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, shu jumladan “...Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida

¹ Irrigation Pumping Plants. Irrigation National Engineering Handbook. United States Department of Agriculture Natural Resources Conservation Service. Washington, 2016, 206 pp

davlat dasturini amalga oshirish”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan, ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, ishonchli tizimlar, inshootlar va uskunalarni yaratish ishonchlilik nazariyasining asosiy mavzusi sifatida qayd etilgan holda, nasos stansiyalarining ishonchliligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni prognoz qilish va ishlab chiqishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-avgustdagi “Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-865–sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 6-apreldagi PF-6200-son “Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi ob‘ektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etishga hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. “Energetika, energiya va resurslarni tejash” va V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘orish nasos stansiyalari kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish muammosi bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilardan Ya.Karelin, V.F.Chebaevskiy, O.N.Pomerantsev (Rossiya), Hans-Werner Hans-Verner Zinna, Gulich J.F. (Germaniya), Kansal M.L., Kumar A., Sharma P.B. (Polsha), Jong-Woong Choi, Chan W.K.; Vong Y.V., Xu V. (Xitoy), Estevam, V., França F.A., Alhanati (Braziliya), Jerar Bois (Fransiya), B. Dhillon (Ottava. Kanadadagi mashinasozlik bo‘limi), Ch. Singx (Universitet Texas, AQSh) va boshqalar, respublikamizdan esa O.Arifjonov, M.R.Bakiev, D.R.Bozorov, M.M.Mamajonov, M.M.Muhammadiyev, F.J.Nosirov, B.M.Shokirov, O.Ya.Glovatskiy, R.O.Ochilov, B.U.Urishev, B.R.Uralov, R.R.Ergashev, I.U.Qurbonov, A.A.Yangiyeu (O‘zbekiston) kabi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi kanali boshqarmasining 25/2021-son “Qarshi magistral kanali nasos stansiyasini suv bilan ta‘minlash sohasida mavjud jarayonlarni sozlash va tuproq ishlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” (26.08.2021 y. 25/2021-son xo‘jalik shartnomasi) va “Qarshi magistral

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni.

kanalining 1-sonli nasos stansiyasini suv bilan ta'minlash sohasidagi joriy jarayonlarni baholash hamda tuproq inshootlari va nasos stansiyasi agregatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusidagi loyihaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qarshi magistral kanali nasos stansiyalarini foydalanish davridagi ishonchliligi va xavfsizligini mavjud holatini baholash va ularni oshirishni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilar:

nasos stansiyaning joriy texnik holatini o'rganish va ularning ishonchliligi va xavfsizligi muammosi turli jihatlarini tahlil qilish;

mexanik suv ko'tarish tizimining bir nechta elementlarini takroriy sinovdan o'tkazish tartibini asoslash;

Qarshi magistral kanali nasos stansiyasi asosiy jihozlarning ish rejimlarini ishonchliligi o'rganish.

mexanik suv ko'tarish tizimining ekspluatatsion ishonchliligini nazariy baholash va nasos stansiyaning ishonchliligi va xavfsizligini oshirish zarurligini asoslash;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qarshi magistral kanali (QMK)ning nasos stansiyalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, Qarshi magistral kanali misolida sug'orish nasos stansiyalarining ishonchliligi va xavfsizligi, ularni pasaytiruvchi va oshiruvchi omillar, nasos stansiyalari samaradorligini oshirish muammolari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Sug'orish nasos stansiyalarining ishonchliligi miqdoriy ko'rsatkichlari ishonchlik nazariyasi va matematik statistikaga asoslanib aniqlandi, gidrotexnikada qabul qilingan umumiy qonuniyatlar, matematik modellash, nazariy va tajriba tadqiqotlari o'tkazishda ISMITning "Nasos stansiyalari va gidroenergetika" ilmiy laboratoriyasi hamda TIIQXMMI MTUning "Nasos stansiyalari va gidroelektr stansiyalar" kafedrasida ishlab chiqilgan metodikalardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari kaskadi uchun ularni ishlash davomiyligini bashorat qilish imkonini beradigan Kaoru Isikava va Pareto diagrammalari ta'sir etuvchi omillar tahlili va nasos stansiyasi asosiy jihozlarning ish rejimlari ishonchliligini inobatga olib ishlab chiqilgan:

sug'orish nasos stansiyalaridagi ishdan chiqishlar haqidagi statistik ma'lumotlar va ularga ishlov berish asosida nasos stansiyalari jihozlari va inshootlarining ishonchliligi va xavfsizligini miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash usullari nasos agregatlari texnik holatini hisobga olib takomillashtirilgan;

Qarshi magistral kanali nasos stansiyalarida ishdan chiqmasdan ishlash davri va ishonchlik ko'rsatkichlari o'rtasida tizimning jihozlari va inshootlari ko'p elementli ekanligini inobatga olgan holda bog'liqlik o'rnatilgan;

gidravlika bloklarining muhim tarkibiy qismlarini tebranish holatini baholash, tebranish me'yorlarini aniqlashtirish va xarakterli xususiyatlari asosida uskunaning

shikastlanishining asosiy turlarini bashorat qilish usullari nasos agregatlarida vibratsiya sinovlari natijalarini hisobga olib takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

statistik ma'lumotlarni tahlil qilish avariya jarayonlarining qonuniyatlarini baholashga, ishonchlilik ko'rsatkichlarining miqdoriy qiymatlarini va buzilish oqimlarining xususiyatlarini aniqlashga imkon bergan;

nasoslarning ish rejimini yomonlashtiradigan, ularning samaradorligini pasaytiradigan va sezilarli yo'qotishlarga olib keladigan alohida jihoz elementlarining FIK yaxshilash usullari ishlab chiqilgan;

agregatning quyi oqimdagi suv sathiga nisbatan noto'g'ri joylashishi, mexanik va gidravlik nomutanosiblik va oqim qismida oqimning geterogenligi tufayli tebranish kuchayishining asosiy sabablari bartaraf etilgan;

oqim tezligi $40 \text{ m}^3/\text{s}$ atrofida bo'lgan va o'xshash analog nasoslar ko'rsatkichlardan 3-4 baravar yuqori dunyodagi yetakchi nasoslar qatoriga kiradigan QMK NS kaskadining ishlashini tekshirish uchun elementlarni tanlash parametrlarga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumiy qabul qilingan tadqiqot usullaridan foydalanib, olingan amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi va eksperimental hamda nazariy natijalarni solishtirilganligi, shuningdek, eksperimentlar natijasi ushbu ilmiy muammo bo'yicha boshqa tadqiqotchilar olgan natijalar bilan qiyoslanganligi, tadqiqotlar natijasini ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumiy qabul qilingan tadqiqot usullaridan hamda olingan amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, tajriba natijalari mazkur tadqiqot yo'nalishidagi boshqa mualliflar olgan natijalari bilan taqqoslanganligi va tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati nasos stansiyaning joriy texnik holatini o'rganish va ularning ishonchliligi va xavfsizligi muammosi turli jihatlarini tahlil qilingani, mexanik suv ko'tarish tizimining bir nechta elementlarini takroriy sinovdan o'tkazish tartibini asoslangani, Qarshi magistral kanali nasos stansiyasi asosiy jihozlarining ish rejimlarini ishonchliligini o'rganilgani, mexanik suv ko'tarish tizimining ekspluatatsion ishonchliligini nazariy baholash va nasos stansiyaning ishonchliligi va xavfsizligini oshirish zarurligini asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati statistik ma'lumotlarni tahlil qilish avariya jarayonlarining qonuniyatlarini baholashga, ishonchlilik ko'rsatkichlarining miqdoriy qiymatlarini va buzilish oqimlarining xususiyatlarini aniqlashga imkon berishi, nasoslarning ish rejimini yomonlashtiradigan, ularning samaradorligini pasaytiradigan va sezilarli yo'qotishlarga olib keladigan alohida jihoz elementlarining FIK yaxshilash usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qarshi magistral kanali misolida sug'orish nasos stansiyalari kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nasos stansiyalari ishonchliligi va xavfsizligini oshirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi (QMK FB) tomonidan joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 05.06.2025 y.dagi 02/19-2517-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kaskadlarning ishonchliligi va xavfsizligini umumiy holatda 7-10 % gacha oshirish imkoni yaratilgan;

ishonchlilikni oshirish va energiyani tejash maqsadida keltiruvchi va mashina kanalida suv yuzasi nishabligini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan va nasos stansiyalarning keltiruvchi kanalda suv oqimining harakatini ifodalovchi matematik model va "Mashinali suv ko'tarish tizimi ob'ektlari ishonchliligini baholash uslublari" nomli dasturi QMK FB tomonidan joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 05.06.2025 y.dagi 02/19-2517-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mashina kanalining 20 kmli uchastkasida elektr energiyasini tejash, QMK nasos stansiyasini suv bilan ta'minlash 5-7 % ga oshishi imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 nomdagi ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan. Muallif tomonidan hammualliflikda yaratilgan "Suv yo'lini suzib yuruvchi oqiziqlardan himoya qiluvchi qurilma"sga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasining IAP 2024 0694 raqamli talabnoma asosida ixtiroga 8088 raqamli patenti olingan (O'zbekiston Respublikasi Ixtirolar davlat reyestrda 09.06.2025-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan).

"Mashinali suv ko'tarish tizimi obektlari ishonchliligini baholash uslublari" nomli dasturi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 14.10.2024-yilda DGU 43239-raqamli guvohnoma berilgan, muallif tomonidan tayyorlangan 2 ta ilmiy tavsiyanoma Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilish uchun qabul qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, O'zbekistonda va jahonda olib borilgan tadqiqotlar asosida muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sug‘orma nasos stansiyalarining ishonchliligi va xavfsizligini baholash tahlili”** deb nomlanadi va nasos stansiyalarining asosiy uskunalari va inshootlarining ishonchliligi va xavfsizligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tahlilini o‘z ichiga oladi.

Gidrotexnika inshootlarining ishonchliligi, sug‘orma nasos stansiyalarining ishonchliligi va xavfsizligini baholash hamda ularni oshirish, nasos stansiyalarini foydalanish davridagi samaradorligini yaxshilash, nasos agregatlarining konstruktsiyalari va hisoblash usullarini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi olimlarning ishlarida yoritilgan: xorijiy olimlar Mirtsxulava Ts.E. (Gruziya), Pan Yun (Xitoy), Balzannikov M.I., Beglyarov D.S., Vissarionov V.I., Elistratov A.N., Karelin V.Ya., Kosichenko Yu.M., Natalchuk M.F., Pomerantsev O.N., Richagov V.V., Stepanov A.I., Solnishkov V.A., Shulman S.G., Chebayevskiy V.F. (Rossiya) va b.q., respublikamizda M.R.Bakiyev, D.R.Bozorov, O.Ya.Glovatskiy, M.Mamajonov, E.J.Maxmudov, I.E.Maxmudov, M.M.Mirsaidov, J.I.Rashidov K.D.Salyamova, M.M.Muhammadiyev, F.J.Nosirov, K.D.Salyamova, T.Z.Sultonov, B.R.Uralov, B.U.Urishev, B.Xamdamiyev, V.V.Xegay, O‘.Xusanxo‘jayev, R.Xujakulov, X.Fayziyev, B.M.Shokirov, R.R.Ergashev, A.A.Yangiyev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Sug‘orish nasos stansiyalarining ishonchliligi va xavfsizligi muammosi turli jihatlarini baholash tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy ekspertlar suv yo‘qotishlarining ko‘payishi va gidrotexnik inshootlarning nosozligi sabablarini quyidagicha tasniflashadi: bosimli quvurlar asoslari tufayli 40 %, suv o‘tkazgichlar sig‘imi yetarli emasligi 23 %, bosimli quvurlar konstruktsiya elementlarining mustahkam emasligi 12 %, boshqa sabablar 25 % tashkil etar ekan.

Barcha inshootlarni, shu jumladan nasos stansiyalarni ham ishonchliligini baholamasdan turib ularni ish sharoitlarini aniqlashtirish, xizmat muddatini oldindan baholash yoki xavfsizlik darajasini aniqlab bo‘lmaydi. Mexanik suv ko‘tarish tizimlarida ishonchlilik va xavfsizlik parametrlarini o‘rganish nasos agregatlari ishlamay qolganda ekspluatatsiya xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish avariya jarayonlarining qonuniyatlarini baholashga, ishonchlilik ko‘rsatkichlarining miqdoriy qiymatlarini va ishdan chiqish oqimlarining xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu masalalar Qarshi magistral kanali sug‘orish nasos stansiyalarida yetarli darajada o‘rganilmagan.

2018-2023-yillar davomida QMK ekspluatatsiya ma’lumotlarini statistik qayta ishlash shuni ko‘rsatdiki, o‘rnatilgan nasos agregatlarining hech biri energiya, gidravlik yoki mexanik sabablarga ko‘ra tasodifiy nosozliklarsiz kalendar yili davomida ishlamagan.

QMK nasos stansiyalarining ishdan chiqish ehtimoli quyidagi jadvalda keltirilgan. (1-jadval).

2023-yilda NS bloklarining ishlamay qolishi ehtimoli o‘tgan yillardagidan yuqori, chunki nosozliklarga olib keladigan gidravlik noxush hodisalar ulushi kamaygan (0,51). Bu yil 2018-2023-yillar uchun umumiy ishonchlilik reytingini hisoblashda hisobga olingan:

$$P(A) = P(A_1) + P(A_2) + P(A_3); \quad (1)$$

$$P(A_0) = 1 - P(A) \quad (2)$$

bunda A_0 - NS muammosiz ishlashi; A_1 - gidravlik nosozliklar; A_2 - mexanik nosozliklar; A_3 - energetik nosozliklar.

1-jadval

QMK nasos stansiyalarining ishdan chiqish ehtimoli

Yil	2018				2019				2020			
	muammosiz ishlash	gidravlik nosozliklar	mexanik nosozliklar	energetik nosozliklar	muammosiz ishlash	gidravlik nosozliklar	mexanik nosozliklar	energetik nosozliklar	muammosiz ishlash	gidravlik nosozliklar	mexanik nosozliklar	energetik nosozliklar
	0,04	0,51	0,41	0,24	0,07	0,46	0,40	0,17	0,08	0,49	0,41	0,17
Yil	2021				2022				2023			
	0,1	0,47	0,36	0,19	0,25	0,49	0,38	0,18	0,35	0,51	0,37	0,19

Suv yo‘qotishlari, gidroabraziv eskirishi va uning elementlari va quvurlarining kavitatsion eroziyasi ta’siri ostida nasos bosimining o‘zgarishi parametrlar mahsuloti sifatida ifodalanishi mumkin.

$$H(t) = H_T(t) \cdot \eta_{o6}(t) \cdot \eta_k(t) \cdot \eta_0(t), \quad (3)$$

bunda $H_T(t)$ - funktsiyadagi nazariy bosim t , m;

$\eta_{o6}(t)$ - funktsiya sifatida nasosning FIK t ;

$\eta_k(t)$, $\eta_0(t)$ - funktsiya sifatida nasos va quvurlarning FIK t .

Mexanik suv ko‘tarish tizimlarining ekspluatatsion ishonchliligini nazariy baholashda kerakli ishonchlilikni ta’minlash muammosini mahalliy hal qilish usullari bilan aniq bir qator muammolarga aylantirishga asoslangan tizim tahlilidan foydalaniladi. Shu bilan birga, tizim elementlarining texnik darajasiga qo‘yiladigan miqdoriy talablardan kelib chiqqan holda, muammo tuzilmaganlar toifasidan rasmiylashtirilganlar toifasiga o‘tkazildi, uni matematik vositalar yordamida hal qilish mumkin.

Dissertatsiyaning “Nasos stansiyalari kaskadidan foydalanish texnologiyasi ishonchliligining mezon qiymatlarini baholash” deb nomlangan **ikkinchi bobida** mexanik suv ko‘tarish tizimlarining ko‘plab elementlarini sinovdan o‘tkazishning takroriy tartibini asoslash amalga oshirilgan.

2-jadvalda elementlarining mavjudligi ehtimolining yuqori va quyi baholari qiymatlari keltirilgan. Yuqori chegara bahosi r yuqori ehtimolliklarda kichikroq xatolikni beradi, pastki chegara esa nolga yaqin r ehtimollarida kichikroq xatolikni beradi.

Eng yaxshi pastki baholanish quyidagicha topiladi:

$$\underline{h}_{.jy} = \max \{ r_1 r_3 r_5, r_2 r_3 r_4, 1 - (1 - r_1 r_4)(1 - r_2 r_5) \}. \quad (4)$$


Mumkin bo‘lgan yuqori chegaralar shaklga ega

$$\bar{h}_{.jy}^{(1)} = 1 - q_1 q_3 q_5, \bar{h}_{.jy}^{(2)} = 1 - q_2 q_3 q_5, \quad (5)$$

Elementlarning ishonchliligi parametrlarini baholash qiymatlari

r	$\underline{h}_{\Theta\Pi}$	$\bar{h}_{\Theta\Pi}$
0,01	0,0535	0,0002
0,1	0,0026	0,021
0,5	0,430	0,569
0,9	0,978	0,932

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, agar boshlang‘ich element $p^{(1)} = 0,5$ xarakteristikaga ega bo‘lsa, u holda har qanday miqdordagi takroriy tizimni qurish tizimning ulanish ehtimolini o‘zgartirmaydi: qurilish jarayonining istalgan bosqichida u bir xil 0,5 ga teng bo‘ladi.



1-rasm. $h(p)$ funksiyaning takroriy tuzilishi uchun ishonchlilik ko‘rsatkichi.

Agar element $p^{(1)} > 0,5$ qiymat bilan xarakterlansa, unda bunday elementdan chekli miqdordagi takrorlashda ulanish ehtimolining istalgan berilgan qiymatiga ega bo‘lgan natijaviy tizimni qurish mumkin.

Mexanik suv ko‘tarish tizimlari ob‘ektlarining ishonchliligini baholashning aniqligini oshirish usullarini ko‘rib chiqayotganda, ushbu ko‘rsatkichni qamrab oluvchi ishonch oralig‘ining kengligini va ishonchlilik ostida olingan natijaning ishonch ehtimoli tushuniladi.

Ishonch oralig‘i statistik bahoning to‘g‘riligini, ishonch ehtimoli esa uning ishonchliligini tavsiflaydi.

Ishdan chiqish ehtimolini baholash uchun ishonch oralig‘i usulidan foydalanish mumkin bo‘lgan xatoni baholashga va ehtimollik o‘zgarishi chegaralarini ko‘rsatishga imkon beradi $P(t, \Delta t)$.

Kam miqdordagi tajribalar bilan ishdan chiqish darajasi ($Q = \frac{n}{m}$),

bunda N -ishdan chiqishlar soni, m - tajribalar soni tasodifiy o‘zgaruvchidir.

Baholashning to‘g‘riligini tavsiflash uchun baholashning standart xatosi σ_x ishlatiladi. Natija $x + \sigma_x + a_x$ shaklda taqdim etiladi, bu yerda x taxminiy σ_x ning X parametridan mumkin bo‘lgan chetlanishining kattalik tartibini baholaydi.

3-jadvalda qiymatlarni belgilashda m uchun minimal qabul qilinadigan qiymatlar ko‘rsatilgan $\Delta I \delta_2 = Q_B - Q_H$, bu yerda Q_B va Q_H - mos ravishda, yuqori va pastki ishonch chegaralari.

Amaliy hisob-kitoblar uchun ishonch koeffitsientining qiymati odatda 0,9-0,95 oralig‘ida tanlanadi. Bu chegaralar kerakli natijalarni ta‘minlash uchun topilgan; 95 % ishonch chegaralari yuqori aniqlikni talab qilmaydigan ma‘lumotlar uchun foydalidir.

Tekshiriluvchi elementlarning ruxsat etilgan minimal soni

n	$\Delta I_{0,95} = 0,20$	$\Delta I_{0,95} = 0,10$	$\Delta I_{0,95} = 0,05$
0	14	29	58
1	21	45	90
2	27	57	113
2	27	57	113
3	31	67	150

Ekspluatatsiya paytida ob'ektning ishonchliligidagi o'zgarishlarni bashorat qilish va to'satdan nosozliklar yuz berganda uning chidamliligini optimallashtirish quyidagi bog'liqliklar yordamida amalga oshiriladi:

$$P_1(T) = \exp\left[\left(\frac{T}{T_{cp}} + I\right) \ln(I - Q_n) - \frac{T}{T_{cp}}\right], \quad (6)$$

bunda $P_1(T)$ - ob'ektning nosozliksiz ishlashi ehtimoli;

T – joriy ekspluatatsiya vaqti;

T_{yp} - o'rtacha nosozliksiz ishlash vaqti;

Q_n - ekspluatatsiya boshida ob'ektning ishdan chiqishi ehtimoli.

Katta kaskadlarning ishonchlilik ko'rsatkichlarini hisoblashda nosozliklar sabablarini tahlil qilish ekspluatatsiya xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ishonchlilikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ekspluatatsiya tajribani to'plashga asoslangan bo'lishi kerak.

Dissertatsiya bir nechta turli yo'naltirilgan daraxtlar nazariyasini o'rganadi, i-yo'naltirilgan daraxt muvaffaqiyatsiz bo'lmasligi tasodifiy hodisani tavsiflaydi. Ushbu hodisa i-yo'naltirilgan daraxtning barcha tugunlari ishlayotganida sodir bo'ladi. QMK ishonchlilik ko'rsatkichlarini hisoblashda nosozliklar sabablarini tahlil qilish uchun daraxtlar nasos agregatlarining ishdan chiqishi uchun Kaoru Isikava va Pareto sxemalariga muvofiq ko'rib chiqildi (2-rasm).


Nasos agregatlarida ishdan chiqishlar sodir bo'ladigan joylashuvi bo'yicha tahlil qilingan (1-rasm)da ularning eng ko'p ko'rsatgichi ya'ni 95 % nasosning mexanik qismida sodir bo'lishi aniqlandi. Agregatning eng "zaif" elementlari esa ishchi g'ildirak va podshipniklar ana shu yerda joylashgan.

Dissertatsiyaning **“Qarshi magistral kanali nasos stansiyalari kaskadining foydalanish davridagi ishonchliligini baholash”** deb nomlangan **uchinchi bobida** QMK kaskadining to'liq hajmdagi ishlab chiqarish sinovlari natijalari keltirilgan.

Gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish tajribasi shuni ko'rsatadiki, Amudaryodan to'g'onsiz suv olish, turli oqimlar, kanalning ajratuvchi inshootlar bilan kesishmasidagi inshootlar kabi agregatlarning ishonchliligi va texnik holati butun majmuaning ishlashiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuning uchun kaskadning ishonchliligi birinchi navbatda bosh qismining suv ta'minoti tuzilmalariga bog'liq.

Kanalning texnik holatidagi o'zgarishlarga undan suvning filtratsiyaga yo'qotishlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Eng katta kaskadlarning ta'minot

kanali holatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, kanallarning geometriyasi eroziya, cho'kindi va sun'iy tozalash tufayli sezilarli o'zgarishlarga uchraydi.



2-rasm. Nasos agregatlarining ishdan chiqishi uchun Ishikava sxemasi.

2022-2023 yillarda QMK kaskadi Qarshi dashti va boshqa yerlarni sug'orish uchun yiliga 4,2-4,4 milliard m³ suv yetkazib berdi. Belgilangan suv ta'minoti hajmini ta'minlash kaskadning bosh qismini ishlatishda sezilarli qiyinchiliklar bilan bog'liq. Texnologik nuqtai nazardan, QMKning suv ta'minoti kaskadning suv ta'minotining texnik imkoniyatlari va Talimarjon suv omborini to'ldirish

darajasi bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida kaskadning ishonchli ishlashiga ham bog'liq.

4,5-jadvallarda QMK ekspluatatsiya ma'lumotlari keltirilgan. Cho'kmalarning umumiy hajmini 80 % bahor-yoz davriga to'g'ri keladi (aprel-avgust). Cho'kindining fraksion tarkibida kichik (gil, loy) fraksiyalarning solishtirma og'irligi 75...80 %, diametri 0,05 mm dan ortiq qum fraksiyalari - 20...25 % ni tashkil qildi. Cho'kmaning hajmiy og'irligi 1,2 t/m³ ga teng.

Rekonstruksiyaning 1-bosqichidan keyin ta'minot kanalining ekspluatatsiya davrida turli vaziyatlar uchun bosh nasos stantsiyasining maksimal oqimini hisoblash natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

Kaskadni ishlash jarayonida 1-nasos stantsiyasi (1-NS) ekspluatatsiyasini qiyinlashtirishga olib keluvch kanal geometriyasining me'yordagiga nisbatan sezilarli darajada o'zgarishi qayd etildi va bu o'z navbatida Amudaryoda suv sathi pasaygan holatda suv olish grafigi buzilishi xavfini tug'diradi. Kanalning mavjud geometriyasi 95 % ta'minlangan suv sathida 1-NS 102,5 m³/s dan ortiq suv sarfi bera olmaydi, so'nggi yillarda suv berish grafigi esa 160 m³/s gacha suv sarfi yetkazib berishni talab qilmoqda.

Kanallarda cho'kindilarga qarshi kurash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- sug'orish manбайдan kanallarga oqib keladigan cho'kindi miqdorini kamaytirish;

4-jadval

Suv hajmiga nisbatan QMK ekspluatatsiya ma'lumotlari

Yillar	Ko'p yillik		2022 y.		2023 y		Farq (+,-)	
	Amudaryodan keladigan suv hajmi, mln m ³	Iste'mol qilingan elektr energiyasi million kVt/soat	Amudaryodan keladigan suv hajmi, mln m ³	Iste'mol qilingan elektr energiyasi million kVt/soat	Amudaryodan keladigan suv hajmi, mln m ³	Iste'mol qilingan elektr energiyasi million kVt/soat	Amudaryodan keladigan suv hajmi, mln m ³	Iste'mol qilingan elektr energiyasi million kVt/soat
yanvar	318	182	264	163	154	97	-110	-66
fevral	307	169	300	168	307	183	+7	+15
mart	367	166	360	169	375	166	+15	-3
aprel	393	180	416	191	411	185	-5	-6
may	439	234	437	254	422	260	-15	+6
iyun	443	226	456	226	447	241	-9	+15
iyul	475	221	422	208	482	227	+60	+19
avgust	435	216	348	214	396	210	+48	-4
sentyabr	336	194	259	174	270	161	+11	-13
oktyabr	292	151	267	142	294	154	+27	+12
10 oylik	3805	1939	3529	1909	3558	1884	+29	-25
noyabr	279	135	312	159				
dekabr	296	165	192	107				
Jami:	4380	2239	4033	2175				

tarkibida zararli bo'lgan yoki sug'orish yerlariga olib o'tish imkoniyati bo'lmagan cho'kindilarni tindirgichlarda to'plash, keyinchalik ularni mexanizmlar yordamida olib tashlash;

QMK va shu kabi yirik kanallarga to'g'onsiz suv olishda suv olish nuqtalari tindirgich vazifasini ham o'taydi va shu bois ham tezda loyqa bosadi. Kanalni suv

o'tkazish qobiliyatini saqlab qolish uchun esa katta miqdorda mablag' va mexanizmlar talab qilinadi;

to'g'onsiz suv olish joylarida cho'kindilarga qarshi kurashda daryo o'zanini hozirgi holatini hisobga olish, ishlab chiqarish tadqiqotlarini o'tkazish va ular asosida keltiruvchi kanalning bosh qismiga zararli cho'kindilarning oqimini kamaytirish bo'yicha mavjud takliflarni aniqlashtirish va yangi takliflarni ishlab chiqish kerak.

5-jadval

QMK kirish kanalining cho'kindi va cho'kindi tozalash hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar

Yillar	Kanalda qolgan cho'kindi		Kanalga kiradigan cho'kindilar		Tozalangan cho'kindilar	
	m ³	tn	m ³	tn	m ³	tn
2018	10131105	12663881	9446681	11808351	6716610	8395753
2019	8617921	10772401	11369434	14211793	6412682	8015853
2020	9670743	12088429	12850400	16063000	5845295	7306619
2021	9585785	11982231	11485963	14357454	8117516	10146895
2022	9442147	11802684	19711477	24639346	10142301	12677876
2023	10742832	134288540	23131175	28913969	8926059	11157574
09.2024 yilgacha	15743747	19679684	19012356	23765445	6888399	8610499

6-jadval

1-Nasos stantsiyasining ish rejimi

Suv olish belgisi (shartli)	Kanalning maksimal suv o'tkazishi, m ³ /s	Nasoslar soni, dona	Nasosning maksimal oqimi m ³ /s	Stantsiyaning umumiy ta'minoti, m ³ /s	Nasosning oqimi, m	Ishchi g'ildiragi parraginging o'rnatish burchagi	Ishchi g'ildiraginging chuqurligi $\nabla VBHB$, m
43,0	145,0	5	29	145,0	19,74	-6,5 ⁰	-3,5
	145,0	4	32	128,0	19,35	-5 ⁰	
43,4	172,0	5	32	160,0	19,74	-4,5 ⁰	
43,6	201,0	5	32	160,0	19,18	-5 ⁰	
44,0	236,0	5	32	160,0	18,45	-6 ⁰	
43,6	176,0	5	34,0	170,0	19,51	-4 ⁰	
44,0	215,0	5	35,0	165,0	18,67	-4 ⁰	-4,5
42,0	68,5	2	34,25	68,5	18,13	-5 ⁰	
44,0	190,0	5	37,0	185,0	19,29	-2,5 ⁰	

Tadqiqotlarimiz asosan Amudaryodan QMKga to'g'onsiz suv olish inshootida olib borildi. Ma'lumki, Amudaryo o'z o'zanini tez-tez o'zgartirib turuvchi daryolar qatoriga kiradi. Daryodan ko'p sonli sug'orish kanallariga suv olishda, kanalning bosh qismini tez loyqa bosishi va cho'kishi tufayli qator qiyinchiliklar kelib chiqadi. Yilning sersuvligiga qarab, har yili magistral kanalga loyqaligi 5 kg/m³ gacha bo'lgan oqim kiradi. Yillik cho'kindi miqdori 8 tonnadan 12 million tonnagacha bo'lishi kuzatildi.

Tadqiqotlarni olib borish davomida daryo o'zanini rostdash va uni tubini chuqurlashtirish, daryodan suv olish bosh uchastkasida va keltiruvchi kanalda, uning bosh qismida kamroq tub oqiziqalar bilan suv olishni amalga oshirish, suv olish sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilash chora-tadbirlari taklif qilindi.

Ishonchlilikni oshirish va energiyani tejash maqsadida keltiruvchi va mashina kanalda suv yuzasi nishabligini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar berildi va bunga

keltiruvchi kanalning suv o'tkazish qobiliyatini oshirish orqali erishiladi. Loyihaviy hisob-kitoblarga ko'ra, mashina kanalining 20 kmli uchastkasida uning nishabligini 0,00015 dan 0,0001 gacha o'zgartirish yiliga 18,0 mln kVt/soat elektr energiyasini tejash imkonini berar ekan.

Bundan tashqari, agregatlar suv dimlanishi holatida kavitatsiyasiz rejimda ishlashi kuzatildi. Masalan, kaskad 1980-yildan 2000-yilgacha vegetatsiya (iyun, iyul, avgust)davrida jadallashgan rejimda ishlagan va bunda suvning loyqaligi 9 kg/m^3 yetganligi aniqlangan, natijada loyqa cho'kindi miqdori maksimal darajaga yetganligi qayd etilgan.

Hozirgi vaqtda ishonchlilik nazariyasining matematik usullari keng qo'llanilmoqda. Ammo, ekspluatatsiya qilinayotgan meliorativ tizimlardagi matematik modellar ularni yetarli darajada aniqlik bilan qo'llash mumkin emasligini ko'rsatdi.

Barcha mavjud nazariyalar va ishonchlilik mezonlari adekvat va quyidagi sifat xususiyatlarini aniqlashga asoslanadi.

Ob'ektlar soni (N_0) ko'p bo'lganda ishdan chiqmaslik ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(t) = \frac{N_0 - \sum_{i=1}^{\frac{t}{\Delta t}} n_i}{N_0} \approx \int_t^{\infty} f(t) \cdot dt, \quad (7)$$

bunda N_0 - ekspluatatsiya boshlanishida ishlaydigan agregatlar soni;

$n_i - \Delta t$ intervalda ishdan chiqqan agregatlar soni;

$t - 0 \dots t$ oraliqda ishdan chiqish ro'y bermasligining shartsiz ehtimoli aniqlanadigan vaqt (ishdan chiqish $t \dots \infty$ oraliqda yuz beradi deb qaraladi)

Ishdan chiqish ehtimoli, ya'ni ekspluatatsiyaning berilgan shart-sharoitida agregatlarning ish soatlarida kamida bitta ishdan chiqish hodisasi sodir bo'lishi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q(t) = 1 - P(t) - 1 - \frac{N_0 - n(t)}{N_0} = \frac{n(t)}{N_0}, \quad (8)$$

bunda $n(t)$ - t vaqt oralig'ida ishdan chiqqan agregatlar soni.

